



Ассоциация
акушеров-гинекологов
Республики Узбекистан



Министерство
Здравоохранения
Республики Узбекистан



Центр Развития
Профессиональной Квалификации
Медицинских Работников РУз



Ташкентская
Медицинская
Академия

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СТАНДАРТИЗАЦИИ ОКАЗАНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ В АКУШЕРСКО-ГИНЕКОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ

Материалы научно-практической конференции

Сборник Тезисов



*посвященной памяти
д.м.н, профессора А.С. Мордухович*

Ташкент 23.02.2023

**СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ
К СТАНДАРТИЗАЦИИ ОКАЗАНИЯ
МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ
В АКУШЕРСКО-ГИНЕКОЛОГИЧЕСКОЙ
ПРАКТИКЕ**

Материалы научно-практической конференции
посвященной памяти д.м.н, профессора А.С. Мордухович.

Сборник Тезисов

Ташкент 23.02.2023

borishi, hayz sikli buzilish holatlari bo'lgan ayollarda At-TPO ni past darajada oshganligi kuzatildi.

Autoimmun tireoidit kasalligi bo'lgan ayollarda bepushtlik, homila saqlay olmaslik va hayz sikli buzilish holatlari kuzatilishi aniqlandi.

HOMILADOR AYOLLARDA BILIAR SLADJNI TASHXISLASH VA DAVOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV.

Egamova S.N.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya kafedrasini, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi.

Mavzuning dolzarbligi. O't tosh kasalligi uzoq, ko'p bosqichli jarayon bo'lib, tosh paydo bo'lish davri o'tning metabolizmi va fizik-kimyoviy xususiyatlarining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Muhim, doimiy xavf omillari bu jins va homiladorlikdir. Homilador ayollarda homiladorlik davrida o't pufagi kasalliklari rivojlanishi uchun xavf omillari etarli darajada baholanmaydi va ko'p hollarda kasallik o'tkir klinik ko'rinishi paytida tashxis qilinadi yoki o't pufagining ultratovush tekshiruvini paytida tasodifan aniqlanadi. Shu tufayli homilador ayollarda o't pufagi patologiyasini erta tashxislash, davolash va asoratlarni oldini olish dolzarbdir.

Tadqiqot maqsadi. Biliar sladj mavjud homilador ayollar uchun diagnostika va davolash taktikasini ishlab chiqish.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqotda ultratovush tekshiruvini ma'lumotlariga ko'ra, biliar sladj tashxisi qo'yilgan 75 nafar homilador ayol ishtirok etdi. Olingan ma'lumotlarni quyidagicha izohlash imkonini beruvchi ushbu uslubiy yondashuvdan foydalandik:

1-toifa - tana holatining o'zgarishi bilan harakatlanadigan va akustik soyani bermaydigan kichik exogen zarrachalarning suspenziyasi;

2-toifa - sust harakatlanuvchi, akustik soyalarsiz exo-musbat, fraktsiyaga tabaqalanuvch quyqasimon safroning mavjudligi;

3-toifa – harakatlanuvchi yoki qo‘zg‘almas shlak ko‘rinishidagi akustik soya bermaydigan safro.

Tadqiqotda Xofitol preparatini biliar sladjni davolash uchun buyurildi, kunlik dozasi biliar sladj turiga bog‘liq. 1-toifa uchun - 1 tabletkadan 3 mahal, 2-toifa uchun – 2 tabletkadan 2 mahal, 3-toifa uchun – 2 tabletkadan 3 mahal qo‘llanildi. Davolashning davomiyligi 1 oydan 3 oygacha.

Tadqiqot natijalari. 1-toifa - 58,6% da (n = 44), 2-toifa - 24% da (n = 18), 3-toifa esa - 17,3% da (n = 13) ko‘rsatgichlarda uchradi. 1-toifa biliar sladjni davolash terapiyasi kamida 1 oyni, 2-toifa uchun kamida 2 oyni tashkil etdi. Eng barqaror tur 3-toifa biliar sladj bo‘lib, uni davolash muddati 3 oy yoki undan ko‘proqni tashkil qildi.

Xulosa. Biliar sladjning exografik variantlari tuzilishini tahlil qilish, 1-toifa biliar sladj - (tana holatining o‘zgarishi bilan harakatlanadigan va akustik soya bermaydigan kichik exogen zarralarning suspenziyasi) turini ko‘p uchrashini ko‘rsatdi ya‘ni 58,6% (n = 44).

Homiladorlarda biliar sladjni davolash usuli Xofitol preparatini qo‘llash bo‘lib, uning dozasi va davomiyligi biliar sladj turiga bog‘liq.

HOMILADOR AYOLLARDA BACHADON BO'YNI KASALLIKLARI DIAGNOSTIKASINI OPTIMALLASHTIRISH Choriyeva G.Z. ¹ , Isroilova R.S. ¹	19
PECULIARITIES OF MET235THR POLYMORPHISM IN PATIENTS WITH GESTATIONAL HYPERTENSION Djamilova Kh.A, Kurbanov B.B	21
AUTOIMMUN TIREOIDIT KASALLIGI BO'LGAN AYOLLARDA ANTITELO-TIREOPEROKSIDAZA DARAJASI OSHISHINING GONODOTROP GORMONLAR O'ZGARISHIGA TA'SIRI Egamova M.B. ¹ , PhD, dotsent Raxmanova N.X. ² , Masharipov O.Q. ³	22
HOMILADOR AYOLLARDA BILIAR SLADJNI TASHXISLASH VA DAVOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. Egamova S.N.	24
HISTOLOGICAL ASPECTS OF EARLY NON-DEVELOPING PREGNANCY <i>Fazilova M.O.¹, Saddam A.Sh.²</i>	26
TO ESTABLISH A CORRECT PROGNOSIS OF PREECLAMPSIA IN THE EARLY STAGES OF PREGNANCY Hamdamov I.F. ¹ , Kamilova I.A. ²	28
CLINICAL AND MORPHOLOGICAL PARALLELS IN THE COURSE OF UTERINE MYOMA D.Y.Yuldasheva ¹ , D.Kh. Irnazarova ² , U.P.Mamadaliyeva ³ , G.A. Akhmedova ⁴ , N.I. Parvizi ⁵ .	30
REPRODUKTIV TIZIM VA QALQONSIMON BEZNING FUNKSIONAL O'ZARO TA'SIRI Zufarova Sh.A ¹ ., Ismoilova K.G ¹ .	33